



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI Demografik holat

2021- yil yanvar-iyun

(dastlabki ma'lumotlar)


Doimiy aholi soni.

Navoiy viloyati doimiy aholisi soni 2021- yil 1- iyul holatiga 1 022,1 ming kishini tashkil etib, 2020- yilning yanvar-iyun oylarida 17,2 ming kishiga yoki 1,7 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 500,2 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 48,9 %), qishloq aholisi soni 521,9 ming kishini (51,1 %) tashkil etdi.

E'tibor bering: 2021- yil yanvar-iyun

- Aholi soni **17 187 kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **11 667 nafarni** tashkil etdi.
- **2 287 nafar** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **3 572 nafar nikoh** va **645 nafar ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Navoiy viloyati aholisining umumiy o'sishi (2021- yil yanvar-iyun oylarida)



2021- yil
yanvar-iyun


Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi

Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, **2021- yil 1- iyul** holatiga eng ko'p aholi soni Xatirchi tumanida 203,5 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 19,9 %) va Qiziltepa tumanida 155,0 ming kishini yoki (15,2 %), aksincha eng kam aholi soni G'ozg'on shahrida 8,8 ming kishini yoki jami viloyat aholisining (0,9 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati **2020- yilning yanvar-iyuniga** nisbatan G'ozg'on shahrida 120,5 % ni, Karmana tumanida 102,8 % ni, Navoiy shahrida 102,6 % ni, Navbahor tumanida 101,5 % ni, Qiziltepa, tumanida 101,4 % ni va Tomdi tumanida 101,3 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2021- yil 1- iyul holatiga, ming kishi)



2021- yil
yanvar-iyun

**Doimiy aholi sonida qishloq va shahar joylardagi aholi soni.
(2021- yil 1- iyul holatiga)**

	<i>Jami aholi</i>	<i>Erkaklar</i>	<i>Ayollar</i>	<i>Shahar aholisi</i>	<i>Qishloq aholisi</i>	<i>1 kv. km ga to'g'ri keladiganlar soni</i>
--	-----------------------	-----------------	----------------	---------------------------	----------------------------	--

Viloyat bo'yicha:	1 022 121	518 084	504 037	500 191	521 930	9,2
------------------------------	------------------	----------------	----------------	----------------	----------------	------------

shaharlar:


Navoiy	148 548	74 732	73 816	148 548	-	2475
Zarafshon	85 072	44 514	40 558	85 072	-	4255
G'ozg'on	8 834	4 743	4 091	8 834	-	14,9

tumanlar:

Karmana	130 010	64 338	65 672	43 525	86 485	136,8
Konimex	36 431	19 204	17 227	16 631	19 800	3,9
Qiziltepa	155 046	78 345	76 701	49 414	105 632	70,8
Navbahor	115 615	58 602	57 013	17 031	98 584	73,6
Nurota	85 759	44 055	41 704	47 870	37 889	14,4
Tomdi	15 331	7 804	7 527	4 940	10 391	0,4
Uchquduq	37 963	18 769	19 194	32 323	5 640	0,8
Xatirchi	203 512	102 978	100 534	46 003	157 509	143,2

Viloyatda hududlar kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2021- yil 1- iyul holatiga aholining eng ko'p shahar joylaridagi ulushi viloyatning shahar aholisiga nisbatan Qiziltepa tumanida 9,9 % ni, Nurota tumanida 9,6 % ni, Xatirchi tumanida 9,2 % ni, Karmana tumanida 8,7 % ni va Uchquduq tumanida 6,5 % ni, aksincha eng kam shahar aholi sonining ulushi Konimex tumanida 3,3 %, Navbahor tumanida 3,4 % ni va Tomdi tumanida 1,0 % ni tashkil etdi.

Doimiy aholi sonida qishloq va shahar joylardagi aholi sonining ulushi (2021- yil 1- iyul holatiga, foizda)




2021- yil
yanvar-iyun

Aholing tabiiy harakati
2021- yil yanvar-iyun holatiga


	2020- yil kishida	2021- yil kishida	o'sish, kamayish	2020- yil har ming kishiga	2021- yil har ming kishiga
<i>Tug'ilganlar</i>	10 655	11 667	1 012	21,4	23,1
<i>O'lganlar</i>	2 089	2 287	198	4,2	4,5
<i>Tabiiy o'sish</i>	8 566	9 380	814	17,2	18,6
<i>Nikohlar</i>	1 895	3 572	1 677	3,8	7,1
<i>Ajralishlar</i>	447	645	19	0,9	1,3

2021- yil yanvar–iyun holatiga aholining tabiiy harakati, birlikda



Tug'ilish. 2021- yilning yanvar-iyun oylarida 11 667 nafar bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 23,1 promilleni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 1,7 promillega oshgan (2020- yilning yanvar-iyun oylarida 21,4 promille bo'lgan).

Navoiy viloyati bo'yicha tirik tug'ilganlar soni
(yanvar-iyun) yillar, ming kishi




Tug'ilganlar 2021- yil yanvar-iyun holatiga, (kishida)

	2020- yil	2020- yil promilleda	2021- yil	2021- yil promilleda
Navoiy viloyati	10 655	21,4	11 667	23,1
Navoiy sh.	855	11,9	1 737	23,7
Zarafshon sh.	641	15,3	885	21,0
G'ozg'on sh	68	18,8	82	18,8
Karmana t.	1 175	18,7	1 602	25,0
Konimex t.	349	19,6	360	20,0
Qiziltepa t.	1 502	19,8	1 592	20,8
Navbahor t.	1 299	23,0	1 279	22,4
Nurota t.	961	22,6	1 078	25,4
Tomdi t.	341	46,1	94	12,4
Uchquduq t.	978	52,3	396	21,1
Xatirchi t.	2 486	25,0	2 562	25,5

Vafot etganlar. 2021- yilning yanvar-iyun oylarida 2 287 ta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,5 promilleni tashkil etdi. 2020- yilning mos davriga nisbatan 0,3 promillega oshgan (2020- yilning yanvar-iyun oylarida 4,2 promille bo'lgan) kuzatildi.

Navoiy viloyati bo'yicha vafot etganlar soni (yanvar - iyun) yillar, ming kishi



Vafot etganlar 2021- yil yanvar-iyun holatiga, (kishida)


	2020- yil	2020- yil promilleda	2021- yil	2021- yil promilleda
Navoiy viloyati	2 089	4,2	2 287	4,5
Navoiy sh.	316	4,4	368	5,0
Zarafshon sh.	140	3,4	154	3,7
G'ozg'on sh.	5	1,4	21	4,8
Karmana t.	284	4,5	318	5,0
Konimex t.	86	4,8	105	5,8
Qiziltepa t.	327	4,3	326	4,3
Navbahor t.	212	3,8	271	4,7
Nurota t.	221	5,2	212	5,0
Tomdi t.	25	3,4	24	3,2
Uchquduq t.	76	4,1	67	3,6
Xatirchi t.	397	4,0	421	4,2

**2021- yil
yanvar-iyun**


Nikoh. 2021- yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 3 572 nafar nikoh qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 7,1 promilleni tashkil etdi. 2020- yilning mos davriga nisbatan 3,3 promillega ko'paydi. (2020- yilning yanvar-iyun oylarida 3,8 promille bo'lgan).



Tuzilgan nikohlar 2021- yil yanvar - iyun holatiga, (kishida)



2020- yil




2021- yil

2021- yil
yanvar-iyun

Nikohdan ajralishlar. 2021- yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 645 kishi nikohdan ajralganligi qayd etilgan bo'lib, 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralganlik koeffitsiyenti 1,3 promilleni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 0,4 promillega ko'paygan (2020- yilning yanvar-iyun oylarida 0,9 promille bo'lgan).



Nikohdan ajralganlar 2021- yil yanvar-iyun holatiga, (kishida)



MIGRATSIYA

2021- yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 4 833 kishini tashkil etgan bo'lib 1 000 aholiga nisbatan ko'chib kelganlar koeffitsiyenti 9,6 promilleni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan minus 3,2 promillega ko'paygan (2020- yilning yanvar-iyun oylarida 6,4 promille bo'lgan).


2021- yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib ketganlar soni esa 5 723 kishini tashkil etgan bo'lib 1 000 aholiga nisbatan ko'chib ketganlar koeffitsiyenti 11,3 promilleni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 3,5 promillega ko'paygan (2020- yilning yanvar-iyun oylarida 7,8 promille bo'lgan).

Migratsiya saldosi minus 890 kishi bo'lib, 2020- yilning o'tgan shu davrida minus 732 kishi bo'lgan.




	2020- yil yanvar-iyun	2021- yil yanvar-iyun
<i>Ko'chib kelganlar</i>	3 171	4 833
<i>Ko'chib ketganlar</i>	3 903	5 723
<i>Migratsiya saldosi</i>	-732	-890

Ko'chib kelganlar yanvar-iyun holatiga, (kishida, % da)



Ko'chib ketganlar yanvar-iyun holatiga, (kishida, % da)



Navoiy viloyati statistika boshqarmasi
Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi
Tel.:(79) 223-07-41